

**"TOPONIMIKA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI, FANLAR
TIZIMIDAGI O'RNI"**

*Murodullayev Nodirbek, Mirzayeva Muxlisa, Mamatvaliyeva Madina
Qo'qon davlat pedagogika institute Geografiya va IBA yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada toponimika fani, bu fanning maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar tizimidagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan*

KALIT SO'ZLAR: *Toponimika, obyekt, toponomistlar, geografik obyekt, atoqli ot, tilshunoslik*

KIRISH:

Toponimika fani ham muhim fanlar qatoriga kiradi. Chunonchi yer sharidagi barcha geografik obektlarni shu jumladan materik va okeanlar, katta va kichik davlatlar, shahar va qishloqlar, tekislik va tog'lar bir so'z bilan aytganda barcha joylarning o'z nomi bor. Bularning barchasini esa toponimika fani o'rganadi. Toponimlarga kiruvchi barcha joy nomlari atoqli otlar hisoblanadi

Toponimika sozining asli lo'g'aviy ma'nosi yunon tilidan olinga bo'lib "topos"- joy, "onom" yoki "onima" - nom. umuman, joy nomini o'rganadigan fan degan ma'noni bildiradi[1].

Kishilar diqqatini tortgan har bir geografik obyektning o'z nomi bor, bu nom joyning biron xususiyatini yoki obyekt bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni o'zida mujassam etgan. Binobarin, joy nomlari «o'lik» so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy xazina. Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Yer yuzida har xil davr va tilga mansub millionlab geograflik nomlarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Ularni har kuni radiodan eshitamiz, gazetada o'qiyamiz, teleekranlarda va kompyuter monitorlarida ko'ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz

tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni joy nomlari orqali anglab olish mumkin

Qadimda toponimikani "zamin tili" "yer tili" deb ham atashgan. Bu fan joyning geografik jihatlarini o'rgangan va tahlil qilgan.

H.Hasanov ta'biri bilan aytganda, "nomlarning o'z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo'jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsam, tog'lar va suvning xususiyati, o'simligi, hayvonot turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar, xazinalar, janglarni e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'laydi. "Demak, toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko'zgusi hisoblanadi.

Har bir fanning o'ziga yarasha o'rganilishdan maqsadi va vazifasi bo'ladi. Shu qatori toponimikani ham o'ziga xos maqsadi va vazifasi mavjud.

Fanning maqsadi toponimlarning ma'lum makon va zamonda biror tarixiy voqea asosida tashkil etilishi, tarixiy, geografik va lingvistik xususiyatlari haqida to'laroq ma'lumot berish va to'g'ri tahlil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi esa talabalarga toponimlar, ularning xususiyatlari, tuzilishi o'rganilish tarixi hamda rivojlanib o'zgarib borishi haqida to'la ma'lumot berishdan iborat. Kengroq va to'laroq yondashsak uning asosiy vazifasi toponimlarning yaratilish sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, o'zgarishi, adreslilik xususiyati axborot (informatsiya) tashishi va qanday ma'no kasb etishini anglash va to'g'ri tushuntirishdan iborat.

Toponimika bir nechta fanlar bilan uzviy bog'liq va o'zaro aloqada bo'ladi. Lekin hozirgi kungacha bu fanning fanlar tizimidagi o'rni va mavqei haqida turlicha fikrlar mavjud

Shuni alohida ta'kidlash zarurki toponimika asosa uchta fanning ya'ni geografiya, tarix va filologiya (lingvistika) fanlarining manfaatli to'qnashuvidan tashlik topgan va bu fanlarning mujassamlashuvi natijasida shakllanib rivojlanib kelmoqda.

Chunki toponimikaga tegishli bo'lgan har qanday manbaa uchala fan uchun ham tadqiqot obekti hisoblanadi. Lekin bu fani har bir fan mutaxasisi o'z nuqtai

nazaridan o'rganadi va shu bo'yicha tahlil qiladi. Quyida har uchala fanning aloqadorligini alohida ta'kidlanadi.

Geografiya:bu fan asosan toponimlarning adreslilik xususiyatlarini aks ettiradi. Biz e'tibor qaratsak xarita yoki atlaslarda keltirilgan xilma-xil axborotlar orasida joyning nomi alohida o'rin tutadi. Bu joy nomi asosan barcha obektlar uchun mo'ljal (orient)vazifasini bajaradi va shu joyning geografik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi .Toponimikaning geografiyaga aloqadorligini T. Nafasov o'z asarida shunday ta'rif beradi "qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir"deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari bu fan bilan dastlab geograflar ya'ni geografiya fani shug'ullanib kelganligi ham buning yaqqol isbotidir.

Toponimlarning adreslik funktsiyasi naqadar muhimligini ms toponimisti V.A.Nikonov aniq ta'riflagan: «Bir lahzaga faraz qilaylik, planetamizda geografik nomlar o'chirib tashlandi. Shaharlar, qishloqlar daryolar, dengizlar, tog'lar, davlatlar, ko'chalar hammasi nomsiz. Natijada, transport izidan chiqqan, odamlar qayerga yurishini, yuklarni qayerga tushirishni, tez yordam mashinasi qayerga borishini bilmaydi, jahon xo'jaligi inqirozga, insoniyat esa ibtidoiy jamoa davriga tushib qolish xavfi paydo bo'lgan, buning hammasi kichkina bir geografik nom tufayli»

Tarix:geografik nomlarning yuzaga kelishi uchun har doim ma'lum bir sharoit natijasida yuzaga keladi va ayrimlari uzoq vaqt saqlanib qoladi. Tushinarliroq qilib aytgandahar bir joy nomining yuzaga kelish tarixi mavjud. Shuning uchun ham bu fan tarix fani uchun alohida ahamiyatli. Toponimikaning tarix fanidagi o'rni haqida rus olimi A.I.Popovni "Toponimika - tarixiy fan" nomli asar yozganligi ham ma'lum. Umimiy qilib aytganda toponimika tarix fani bilan uzviy bog'langan.

Lingvistika:Toponimika fani tilshunoslik fani uchun ham alohida ahamiyatli. Chunki har bir toponim yuqorida aytganimizdek atoqli ot bo'lib u ma'lum til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Bu qonuniyat esa filologlar tomonidan o'rganiladi.

E.M.Murzaev toponimikani fanlar tizimidagi o'rniga baho berib, bu masalada olimlar orasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi va u hozirga qadar uzil-kesil hal

bo'lmaganligini ta'kidlagan. H.Hasanov ham bu masalada o'z munosabatini bildirib: «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog'i bo'lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desak xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi», deb yozgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli .Hozirgi kunda yer sharida taxminan yarim milliarddan ortiq joy nomlari bor.Ularning yuzaga kelishida ma'lum tarixiy sabablar ,geografik xususiyatlar va lingvistik qonuniyatlar mavjud.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1.Zohid Madrahimov “TARIXIY TOPONIMIKA” (o'quv qo'llanma) «Navro'z» nashriyoti Toshkent 2017

2.Xalimov Rabbim Xalimovich “Toponimika fanidan geografiya yo'nalishi talabalari uchun O'quv uslubiy majmua” Samarqand 2009

3.Hakimov Q. M., Mirakmalov M.T. “TOPONIMIKA” (DARSLIK) Toshkent «Tafakkur avlodi» 2020

4.Suyun Qorayev “TOPONIMIKA” O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006

5.F.S.Meliboyeva ,M.O.Vohidova , A.S. Anorboyeva “TOPONIMIKANING GEOGRAFIYADAGI O'RNI” 2023

6. F.S.Meliboyeva, M.Q.Mirzayeva “Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi” mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish- Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2023 - tadqiqotlar.uz

7.Qo'chqor Hakimov "Toponimika".Toshkent "Mumtoz so'z".2016

8.F.S.Meliboyeva, Z.Z.Ashirov, G.F.Jaxongirova “GEOGRAFIYA DARSLARIDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH” 2023

9. F.S.Meliboyeva, F.K.Otajonova, M.Q.Mirzayeva, “UMUMTA`LIM MAKTABLARI “TABIY GEOGRAFIYA” KURSLARIDA GIDROLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH 2023

10. F.S.Meliboyeva M.Y.Ergasheva Sh.A.Aliyeva “MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONIMIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH

11. F.S.Meliboyeva, M.A.Mamatvaliyeva GEOGRAFIYA DARSLARIDA “ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR” MAVZUSINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH

12. F.S.Meliboyeva G.F.Jaxongirova Sh.Q.Ergashboyeva UMUMTA`LIM MAKTABLARINI 8-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA “TRANSPORT GEOGRAFIYASI” MAVZUSINI O`QITISHDA KO`RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH